

PSIXOLOG KASBINING KOMPETENTLIK MEZONLARI VA MUAMMOLARI

Qodirova Dilnoza Murtazoyevna

BuxDu psixologiya kafedrası òqituvchisi

Annotatsiya: Maqolada kommunikativ kompetensiya, kommunikativ ko'nikmalardan farqli o'laroq madaniyatda mavjud bo'lgan maqsadlarga erishish vositalari va usullaridan foydalanish va mashq qilish orqali o'rgatilishi mumkin bo'lgan fazilatlar, insonga o'z aloqa maqsadlariga erishish vositalarini va usullarini mustaqil ravishda yaratishga imkon beradigan fazilatlar mavjudligi to'grisida so'z boradi.

Kalit so'zlar: kommunikativ kompetentlik, bo'lajak o'qituvch, muloqot, oliy ta'lim, psixolog.

Аннотация: В статье коммуникативная компетентность, в отличие от коммуникативных умений, качеств, которым можно научить посредством использования и практики существующих в культуре средств и способов достижения целей, позволяет человеку самостоятельно использовать средства и способы достижения целей. его коммуникативные цели. Говорят, что есть качества, которые позволяют творить.

Ключевые слова: коммуникативная компетентность, будущий учитель, общение, высшее образование, психолог.

Abstract: In the article, communicative competence, in contrast to communicative skills, qualities that can be taught through the use and practice of the means and methods of achieving goals existing in the culture, allows a person to independently use the means and methods of achieving his communication goals. it is said that there are qualities that allow creation.

Key words: communicative competence, future teacher, communication, higher education, psychologist.

KIRISH

Hozirgi kunda Respublikamizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamdagi islohotlarning taqdiri yoshlarning yuksak ma'naviy kamoloti, intellektual salohiyati va kasbiy fazilatlariga bog'liq. Ushbu vazifalarni amalga oshirish, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da belgilab qo'yilgan.

Mamlakatimizda o'tgan yillar davomida amalga oshirilgan keng ko'lamli islohotlar milliy davlatchilik va suverenitetni mustahkamlash, kuchli

fuqorolik jamiyati qurishga, erkin bozor munosabatlariga va hususiy mulk ustuvorligiga asoslangan iqtisodiyotni rivojlantirishga, xalq osoyishtaligi va farovon hayot kechirishi uchun munosib shart-sharoitlarni yaratishga qaratilgan islohotlar amalga oshirilmoqda.

Davlat dasturining "Ijtimoiy sohani rivojlantirish" deb nomlangan to'rtinchi yo'nalish aholi bandligini oshirish, fuqorolarni ijtimoiy himoya qilish va ularning salomatligini saqlash, yo'l-transport, muhandislik-komunikatsiya hamda ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish va modernizatsiyalash, aholining muhtoj qatlamlariga ko'rsatiladigan ijtimoiy yordam sifatini oshirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy hayotdagi maqomini oshirish, maktabgacha ta'lim muassasalarining qulayligini ta'minlash, umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus va oliy ta'lim sifatini yaxshilash hamda ularni rivojlantirish chora-tadbirlarini amalga oshirishni nazarda tutadi.

ASOSIY QISM

Hozirgi davrda psixologikada inson dunyoqarashi masalalari tubdan ko'rib chiqilmoqda. Insonning ijtimoiy hayotdagi holati o'zgarimoqda va o'sib kelayotgan avlod ta'lim-tarbiyasi qayta baholanmoqda, bu esa mazkur jarayonlar sub'ektlarining o'zaro munosabati ham o'zgarishiga olib kelmoqda. Psixolog va tarbiyalanuvchilarning o'zaro munosabatining insonparvarlik aspektlari bugungi kunda I.Kantning har bir insonga o'z maqsadlariga erishish va o'zining boshqalar uchun bir vositaga aylanishiga yo'l qo'ymaslikni ifodalovchi qat'iy majburlamaslik formulasiga asoslanadi. Psixologik muloqotni tashkil etishda faqat psixologik maqsad va vazifalardan kelib chiqish mumkin emas, aslida aynan ular faoliyatning asosida bo'lishi tabiiy. Muloqotning bunday holatida amal qilish xususiyati shunga olib keladiki, psixolog u bilan doim o'z fikri, ya'ni faqat "o'zinigina" talabini bayon qilish orqali muloqotga intiladi. Bolalar bilan muloqotda "o'zinigina" talabini bayon etish orqali emas, balki "bolalardan" fikr olish, ularning qiziqishlari, intilishlarini nazarda tutib, muloqot qurish muhim, shunda bola o'z qiziqish va o'z olami bilan psixologik maqsadlar radiusida bo'ladi.

Muloqot qilishda uchta o'zaro bog'liq kommunikativ, interfaol va pertseptiv komponentlarning birligi sifatida uch tomonlama yondashuv alohida ahamiyat kasb etadi (G.M.Andreeva, A.A.Bodalev, B.D.Parigin). Bunda muloqotning kommunikativ tomoni o'zida o'quvchilarning axborotni uzatish, o'zaro ta'sir qilish interfaol tashkiliy jihatini, pertseptiv jhati esa, ularning bir-birini idrok etishi hamda shu asosda o'rnatilgan o'zaro tushunish va hissiy aloqani namoyon etadi.

Psixologning kommunikativ qobiliyatlari turli tushunchalar bilan: "psixologik mahorat", "malakaviy tavsif", psixologik ta'lim nazariyasida

psixologga kasbiyprofessional asoslardan talablar turli tushunchalar bilan ifodalangan: “psixologik mahorat”, “malakaviy tavsif”, “shaxsning professiogrammasi”, “professional tayyorlik”, “kasbiyprofessional kompetentlik” bilan ifodalangan. Umuman olganda, yuqorida sanab o'tilgan, bir hodisani tavsiflovchi psixologik toifalar alohida mazmuniy jihatlarga ega va turli kontekstlarda qo'llaniladi.

“Kommunikativ kompetentlik” tushunchasi bilan yaqin aloqador bo'lgan – “shaxsning kommunikativ yadrosi” tushunchasi mavjud. «Kommunikativ yadro» tushunchasi yaqinda paydo bo'lgan va ilmiy tadqiqot ishlarida zamonaviy psixolog A.A.Bodalev tomonidan birinchi marta qo'llanildi. Shaxsning kommunikativ yadrosi psixologik hodisa sifatida ko'rib chiqilishi har bir insonda muloqotni yanada muvaffaqiyatli amalga oshirishga imkon beruvchi asos mavjud. Bunday asos har qanday katta yoshli insonlarda, bolalar shaxsida ham mavjud bo'lib, kommunikativ yadrosiga shaxsiy xususiyat va sifatlar kirishi mumkin. Aynan ular oxir-oqibat, muloqot metodi va yo'nalishi boshqa tomondan, psixologning kasbiy kommunikativ kompetentligining past darajasi unga professional sifatida o'zini o'zi amalga oshirishiga imkon bermaydi, oqibatda umuman, hayotdan qoniqmaslikni tug'dirishi mumkin. Mazkur umumiy va kasbiy kommunikativ kompetentlikning o'zaro ta'sirini inobatga olib, biz uning namoyon bo'lishining quyidagi mezonlarini aniqladik: birinchi mezon – umumiy kommunikativ qadriyatlar.

Ularga psixolog uchun insonning qadri, muloqot jarayonining qadri, psixolog uchun an'anaviy muloqot shakllarining qadrini kiritdik; ikkinchi mezon – psixologning shaxslararo muloqotni amalga oshirishi umumiy kommunikativ ko'nikmalari sifatida belgilandi. Bu uning yaqin qarindosh insonlar, ishdagi hamkasblar, o'quvchilarning ota-onalari bilan aloqa o'rnatish ko'nikmasi; uchinchi mezon – psixologning umumiy kommunikativ qadriyatlarni o'zining kasbiy idealiga kiritish darajasi, chunki mazkur qadriyatlarning rivojlanish darajasi kundalik hamda psixologik muloqotda ham katta ahamiyatga ega. Bundan tashqari, ular psixologning bolalar bilan insonparvarlik, fasilitatorlik muloqotining o'ziga xos asosi bo'lib xizmat qiladi, uning asosida o'z mehnatining yetakchi qadriyati sifatida o'quvchiga yo'nalganlik va o'zini o'zi anglash hamda o'zini o'zi, o'quvchi shaxsining o'zgarishlari mos ravishda o'z faoliyati usullarini o'zgartirish ehtiyoji yotadi; psixologda kasbiy kommunikativ malakalar mavjudligi kommunikativ kompetentligi darajasini baholashning to'rtinchi mezoniga aylandi, chunki kasbiy psixologik muloqot uni kundalik muloqotdan farqlovchi qator xususiyatlarga ega.

Yosh avlodni barkamol, komil inson bo'lib yetishishida pedagog, tarbiyachi va o'qituvchilarning ro'li benihoya kattadir. Olimlar ta'kidlaganlaridek, "Birovni o'qitadigan, tarbiya beradigan inson, avvalo, o'zi har tomonlama barkamol bo'lmog'i shart". Shu sababli pedagoglar ish faoliyatini yanada yuksaltirish, kasbiy mahoratini oshirish asosiy birinchi vazifa sifatida qayd etilmoqda. Bugungi kunda ta'lim beruvchilarning kasbiy kompetentligini samarali olib borilishini ta'minlash dolzarb masalaga aylandi. Barcha ta'lim muassasalarida ta'lim beruvchilarning kasbiy kompetenti muhim o'rin egallaydi.

XULOSA

Mavzusiga aloqador, ushbu muammo o'rganilgan adabiyotlar va o'tkazilgan tajribalar natijalariga ko'ra, Bo'lajak psixologlarda kommunikativ kompetentlikni shakllantirish yo'llari xususida quyidagi xulosalarni berish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

1. Bo'lajak psixologlarda kommunikativ kompetentlikni shakllantirish yo'llari bilan bog'liq nazariy va amaliy tajriba natijasida «Kommunikativ kompetentlik» tushunchasi mazmuni va uni ishlab chiqishning asosiy yo'nalishlari aniqlandi;

2. Bo'lajak pedagoglarda kommunikativ kompetentlikni shakllantirish imkoniyatlari belgilandi;

3. Tarbiya nazariyasi va amaliyoti taxlili shuni ko'rsatdiki, bo'lajak pedagoglarni tayyorlashning ayrim bosqichlarida maxorat, bilimni egallashda ijodiy xususiyat hosil bo'ladi. Bu xususiyatlarning har biri alohida farqlanuvchi belgilari, tomonlariga ega bo'ladi.

4. Bo'lajak psixologlarda kommunikativ kompetentlikni shakllantirishning didaktik shartlari, usullari, bosqichlari, ko'rsatkichlari aniqlandi.

5. Bo'lajak psixologlarda kommunikativ kompetentlikni shakllantirishda mas'uliyatlilik, mehribonlik, mustaqillik, aqllilik, o'ziga bo'lgan ishonch kabi insoniy sifatlarga nisbatan o'ta ta'sirchan va e'tiborlidir.

6. Zamonaviy kommunikativ kompetentlikni shakllantirish mazmunli sohasi tahliliga ko'ra tavsiyalar ishlab chiqildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Karimov I.A/ Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori – T,-1997

2. Aripov M. Internet va elektron aloqa asoslari. –T.:«Universitet». 2000, 132 b.

3. Ahmedov A.B., Taylaqov N.I. Informatika. Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari uchun darslik.–T.: O'zbekiston, 2001.–272 b.
4. G'ulomov S.S. va boshqalar. Axborot tizimlari va texnologiyalari: Oliy o'quv yurti talabalari uchun darslik /Akademik S.S. G'ulomovning umumiy tahriri ostida. – T.: «SHarq», 2000.–529 b.
5. Yo'ldoshev J.G'., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. –T.: «O'qituvchi». 2004.
6. SayidahmedovN. Yangi pedagogic texnologiyalar (nazariya va amaliyot). –T.: «Moliya» nashriyoti. 2003.
7. Inoyatov U.I. Ta'lim sifatini nazorat qilish va boshqarish G'G' Kasb-hunar ta'limi.- 2004.- №1.-B. 3-4.
8. S. G'ulomov. R. Ubaydullaeva. A. Ahmedov. "Mustaqil O'zbekiston".
9. S.S. G'ulomov. X.R. Raimov. va boshqalar. "Ta'lim–tarbiya sifati va qirralari".